

XALQ PEDAGOGIKASIDA MAQOLLARNING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Abilova Aynurа Keunimjay qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birgalikda ularning ma'naviy salohiyatini ham shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri ekanligi haqida fikrlar berildi.*

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, maqollar, barkamol shaxs, ma'naviy ong, yuksak insoniy fazilatlar.*

O'zbekiston Respublikasining kelajak ravnaqi o'sib kelayotgan barkamol avlodning intellektual ongini shakllanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bolaning ongiga kichik yoshidan boshlab, Vatanga muhabbat, g'urur, milliy qadriyatlar, o'zlikni anglashni singdirib borish lozim. Bola qalbi go'yo yozilmagan oq qog'oz kabidir. Unga nimalarni yozish, qanday to'ldirish biz kattalarga bog'liqdir. Kattalar, tarbiyachilar ushbu ma'suliyatni his qilishlari bilan bir qatorda, yosh bolaga ta'lim-tarbiya berishda bolaning oq qog'oz kabi pok qalbini yaralab qo'ymaslikka ma'suldirlar.

Maqol va matallar hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqol va matallar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiyyidir.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangi, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliv axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qliki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biz o'zaro muloqat jarayonida o'z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo o'zingni tarbiya qil.

Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishni o'zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand - oynadir". Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va

iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Bizga ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi o‘z ichiga dostonlarni, afsonalarni, maqollar va matallarni oladi. O‘zbek millatini ma’naviy qiyofasini, o‘zligini ko‘rsatib beradigan xalq og‘zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir.

Maqollarni o‘rganish va o‘rgatish yoshlarimiz ma’naviyatida o‘z millatiga nisbatan hurmatni, qalbida faxr tushunchasini beradi. Xalqimiz turmush tarzi ifodalangan manbalardan biri sifatida xalq og‘zaki ijodi, deb qarashimiz mumkin. Maqollar esa xalq og‘zaki ijodining yirik namunasidir. Maqollarni o‘rganishimiz o‘z tilimizga nisbatan hurmatni, uni yoshlarimiz ongiga singdirib ularda qadriyatlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shu bilan birga maqollarimizni chet el maqollari bilan taqqoslash ularni o‘rganish ham boshqa millatlarga nisbatan hurmatni va ularni dunyo qarashidan boxabar bo‘lishimizga katta turtki bo‘ladi.

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, mehr-oqibat, do‘stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda maqollarni o‘rganish orqali o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish bilan bir qatorda ular orqali o‘quvchilar ongiga turli insoniy fazilatlarni singdiriladi. Bunda quyidagilarga e’tibor beriladi: 1) maqollar tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi; Masalan: “Hunarli kishi xor bo‘lmas” (1-sinf), “Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda” (3-sinf), “Yolg‘iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong‘i chiqmas” (4-sinf) maqollarida hunar orqasidan kishining yaxshi turmush kechirishi hamda kishilar orasidagi ahillikning ahamiyati ifodalangan; 2) Maqol mazmunida narsalarning o‘ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi va bu inson hayotiga ham bog‘liq holda, ma’no jihatidan tarbiya mazmunini beradi. Masalan: “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni” (1-sinf); “Do‘stsiz boshim-tuzsiz oshim” (4-sinf), 3) Maqollardagi muhokama va tafsilot inson, jamiyat va ayrim predmetlarning mohiyatini eslatish bilan birga, o‘quvchilar fikrini uyg‘unlashtiradi, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: “Ona yurting – oltin beshiging” (4-sinf), “Erinchoqlik boshga balo keltirar” (4- sinf). Ilm-fanni egallahsga, hunar olishga yo‘naltiruvchi maqollar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Zero, komillik belgisi eng avvalo ilmlilik va biron-bir hunarnining mohir egasi bo‘lish bilan ham belgilanadi. “Bilimdan ortiq boylik yo‘q”, “Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir”, “Aqlning qayrog‘i – bilim” (1-sinf), “Bilim – baxt keltirar” (2-sinf), “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni”, “Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar”, “Ilm olish – igna bilan quduq qazish”, “Bir yigitga qirq hunar oz”, “Hunar o‘rganish uchun ham hunar kerak” (3-sinf), “Olim bo‘lsang, olam seniki”, “Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda”, “Ilm-aql chirog‘i” (4-sinf) kabi maqollarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga ilm olishning afzalliklari, bilim hamisha insonni yuksaklikka eltuvchi

vosita ekanligini, shuning uchun o‘quvchilar hozirdanoq bilim olishga qunt bilan kirishishlari zarurligi uqtiriladi.

O‘quvchilarga maqollarni o‘rgatishda hayotiy misollar yoki ertak qahramonlarining hayot yo‘llarini namuna qilib ko‘rsatish ham katta amaliy natija beradi. Masalan: 1-sinf o‘quvchilariga do‘slikni madh etuvchi maqollardan (“Aybsiz do‘sit izlagan do‘stsiz qolar”, “Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi, Sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi”) namunalar aytilib maqollarning isboti uchun “Sher va sichqon”, “Kenja o‘g‘il” ertakalarini misol qilib keltirish mumkin. Bu ertaklarning mazmunida ham aynan do‘slik, uni qadrlash g‘oyalari ustunlik qiladi. Maqol ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarga uning yaratilish sababini, uning ahamiyatini tushintirib borish zarur. Har bir o‘rganilayotgan maqoldagi hayotiy hikmatni anglab olish ko‘nikmasi shakllantira olinsa, o‘quvchilar qalbidagi yuksak insoniy fazilatlar ham rivojlanib boradi.

Ko‘rinadiki, xalq maqollari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy fazilatlarni tarbiyalashda, ularda yuksak ma’naviyatni shakllantirishda, keljakda barkamol inson bo‘lib yetishishlarida juda katta rol o‘ynaydi

Xulosa qilib aytganda, maqollar nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o‘zi ichki tasniflashda oz so‘zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso‘zlik, to‘g‘ri so‘zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokozo mavzularni o‘z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o‘z o‘rnida unumli va o‘rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek bolalar adabiyoti ontologiyasi 2 томлик. Toshkent. 2006.
2. M Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Т. 2010.
3. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. Toshkent: “Aloqachi” nashriyoti, 2008.
4. S. Israilova, & N. Alavutdinova (2023). INTERCULTURAL COLOR INTERPRETATION. Science and innovation, 2 (C12), 111-115. doi: 10.5281/zenodo.10392062
5. Atadjanova, M. A. (2021). Animation mythology and its functional nature in the current uzbek prose. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 70-78.
6. Kamilova, U. M. I. D. A., Atakhodjaeva, G. U. L. C. H. E. K. H. R. A., Abdullaeva Ch, M. D., Zakirova, G., & Tagaeva, D. (2022). Features in the processes of left ventricular remodeling depending on the degree of renal dysfunction in patients with chronic heart failure. Int J Biomed, 12(2), 218-21.
7. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: ”Sharq” nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
8. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muammolari. О ‘ZBEKIST, 87.
9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. “Hikmatnoma” O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2000.

10. Abdurahmanova, M. T. (2023). OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN'IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O 'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 241-248.
11. Tursunaliyevna, A. M. (2023, May). OMONIMLAR VA SUN'IY INTELLEKT. In International Congress on Models and methods in Modern Investigations (pp. 48-51).
12. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
13. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). INNOVATIVE METHODS AND TOOLS IN HIGHER EDUCATION. Science and Innovation, 2(11), 708-715.
14. Jumayeva, M. B., & Usmanovna, S. M. (2022). PRACTICAL METHODS OF CULTURE-BASED LANGUAGE TEACHING IN ENGLISH CLASSES. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 612-615.
15. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. Solution of social problems in management and economy, 2(13), 5-12.